



INNOVATSION RIVOJLANISH AGENTLIGI DIREKTORI BUYRUG'I

2025-yil 30-may

109-son

Toshkent shahri

Innovatsion rivojlanish agentligining Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son Farmoni va 2018-yil 5-iyuldagi "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3837-son qaroriga muvofiq fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish, faoliyatini ochiq, shaffof va oshkora amalga oshirilishini ta'minlash hamda faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi (keying o'rinlarda - Agentlik) Jamoatchilik kengashining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Axborot xizmati** (M. Fayazova) Jamoatchilik kengashining ishchi organi etib belgilansin hamda uning faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta'minlab borsin.

3. **Axborot xizmati** (M. Fayazova) **o'n kun muddatda** tizim tashkilotlari va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom loyihasini, shuningdek, Jamoatchilik kengashining ish rejasini ishlab chiqib, ko'rib chiqish va kelishish uchun Jamoatchilik kengashining birinchi yig'ilishi kun tartibiga kiritsin.

Bunda, **tizim tashkilotlari va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari** Jamoatchilik kengashining 2025-yildagi faoliyati ish rejasini shakllantirish uchun Agentlik va uning tizim tashkilotlari faoliyatiga oid muhokama etiladigan asosiy masalalar (mavzular)ni taqdim etishlari inobatga olinsin.

4. Belgilansinki, tizim tashkilotlari va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarini tashkillashtirish va ma'lumot bilan ta'minlashda Axborot xizmatiga ko'maklashishga **shaxsan mas'ul** hisoblanadi.

5. Axborot xizmati (M. Fayazova):

Jamoatchilik kengashi faoliyatini samarali tashkil etish va doimiy ravishda yig'ilishlarini o'tkazish choralarini ko'rsin;

Jamoatchilik kengashi faoliyatini Agentlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng yoritilishini ta'minlasin.

6. Agentlik direktorining 2023-yil 12-apreldagi 53-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



Sh.Rajabbayev



Ҳужjat haqiqiyiligini mobil qurilma
yordamida QR- kodni skaner qilish
orqali tekshirish mumkin